

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI
TARBIYALANUVCHILARI UCHUN DAVRA SUHBATI:
“MILLIY SAN'AT VA HUNARMANDCHILIK”

Davra suhbatining maqsadi:

- Bolalarga milliy san'at va hunarmandchilik haqida tushuncha berish;
- Milliy hunarmandchilik namunalari bilan tanishtirish;
- Milliy san'at va hunarmandchilik namunalariga qiziqish uyg'otish.

Kutilayotgan natija:

- Bolalar milliy san'at va hunarmandchilik haqida umumiy tushunchaga ega bo'ladi;
- Milliy san'at va hunarmandchilik haqida so'zlay oladi;
- Milliy san'at va hunarmandchilikka nimalar kirishi haqida tushunchaga ega bo'ladi.

Kerakli jihozlar: milliy san'at va hunarmandchilik namunalarini ifodalovchi ko'rgazmali kartochkalar.

Mashg'ulot davomida tarbiyachi bolalarga milliy san'at va hunarmandchilik so'zining mazmun-mohiyatini tushuntiradi.

I. Kirish qismi

Tarbiyachi qo'lida sopol ko'za, atlas mato va yog'och qoshiq bilan kiradi.

Tarbiyachi: Bolajonlar, bugun men sizlarga ajoyib buyumlar olib keldim. Qaranglar-chi, bular nimalar ekan?

Bolalar buyumlarni tomosha qiladi.

Tarbiyachi: Bu – ko'za! Bu – atlas mato! Bu esa yog'och qoshiq!

Bilasizmi, bu buyumlarni oddiy mashina emas, mohir ustalar yasagan. Ularni hunarmandlar deydi. Hunarmandlar qo'llari bilan juda chiroyli buyumlar yaratadi.

Tarbiyachi atlas matoni ko'rsatadi.

Tarbiyachi: Voy, qanday chiroyli ranglar! Sizlarga yoqdimi?

Bolalar javob beradi.

Tarbiyachi: Bugun biz milliy san'at va hunarmandchilik olamiga sayohat qilamiz.

II. Asosiy qism

Tarbiyachi: Bolajonlar, kulol degan ustani bilasizmi?

Bolalar javob beradi.

Tarbiyachi sopol ko‘zani ko‘rsatadi.

Tarbiyachi: Kulol loydan mana shunday chiroyli ko‘zalar yasaydi. Avval loy qoradi, keyin unga shakl beradi, so‘ng pechda pishiradi.

Duradgor esa yog‘ochdan eshik, deraza va stol yasaydi.

Zardo‘z chiroyli matolarga naqsh tikadi. Gilamdo‘z esa rang-barang gilamlar to‘qiydi.

Tarbiyachi: Hozir sizlar bilan haqiqiy ustalar qanday ishlashini ko‘ramiz. Videoda hammamiz sevgan atlas matosi qanday tayyorlanishi ko‘rsatilgan.

Vizual kontent

Atlas matosi qanday ishlab chiqariladi?

<https://www.youtube.com/watch?v=fE7xsitwMXQ>

Tarbiyachi: Ko‘rdingizmi, bolajonlar, ustalar buyumlarni birdan yasab qo‘ymaydi. Ular sabr bilan, mehr bilan mehnat qiladi. Shuning uchun hunarmandlarning ishlari juda chiroyli chiqadi.

Endi esa o‘yin o‘ynaymiz.

Harakatli interfaol o‘yin: “Qaysi usta?”

O‘yin qoidasi:

Tarbiyachi harakatini ko‘rsatadi. Bolalar esa qaysi usta ekanini topib, o‘sha harakatni birgalikda bajaradi.

Masalan, tarbiyachi qo‘llari bilan loy aylantirgandek harakat qiladi.

Bolalar: Kulol!

Shunda hamma birgalikda “loy qorib”, “ko‘za yasayotgandek” harakat qiladi.

Keyin tarbiyachi yog‘och arralayotgandek harakat qiladi.

Bolalar: Duradgor!

Bolalar “taxta arralaydi”, “mix qoqadi”.

Keyin tarbiyachi gilam to‘qiyotgandek qo‘l harakati qiladi.

Bolalar: Gilamdo‘z!

Bolalar ip tortib gilam to‘qiyotgandek harakat qiladi.

So‘ng igna bilan kashta tikayotgandek harakat qiladi.

Bolalar: Kashtachi!

Bolalar havoda “gul tikayotgandek” harakat qiladi.

O‘yin tezlashib boradi. Tarbiyachi harakatlarni aralashtirib yuboradi, bolalar esa topishga harakat qiladi. Eng faol va chaqqon bolalar olqishlanadi.

Tarbiyachi: Barakalla! Sizlar bugun haqiqiy kichkina ustalarga aylanib qoldingiz!

III. Yakuniy qism

Tarbiyachi: Bugun biz milliy san’at va hunarmandchilik haqida bilib oldik. Hunarmandlar juda mehnatkash insonlar ekan.

Hunarmandlarning ishlari xalqimizning boyligi hisoblanadi. Shuning uchun biz milliy san’at va hunarmandchilikni yaxshi ko‘rishimiz va qadrlashimiz kerak.

Endi sizlar ham kichkina ustalar bo‘lasizlar. Kelinglar, o‘zimizga yoqqan hunarmandchilik buyumining rasmini chizamiz.

Bolalar rasm chizadilar.

Tarbiyachi: Barakalla, bolajonlar! Sizlar bugun juda faol qatnashdingiz. Shu bilan mashg‘ulotimiz nihoyasiga yetdi.